

AVESTODA OILADAGI JISMONIY, MA'NAVIY-HUQUQIY TARBIYA MASALALARI: AN'ANALAR VA O'ZIGA XOSLIK

IIV Surxondaryo akademik
litseyi tarix fani o'qituvchisi

Toshboltayev Islom Bahodir o'g'li

mamasoatr@gmail.com +998 93 766 99 08

Kalit so'zlar: "Avesto", oila, ma'naviy-huquqiy tarbiya, avlod, jismoniy, serfarzandlik, oqsoqol, oila boshlig'i.

Ключевые слова: "Авесто", семья, духовно-правовое воспитание, поколение, физическое, плодородие, старейшина, глава семьи.

Keywords: "Avesto", family, spiritual and legal education, generation, physical, fertility, elder, head of the family.

Ma'lumki, oila insoniyat taraqqiyotining dastlabki ijtimoiy uyushmasi sifatida, kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshlagan. Keyinchalik dastlab oilada, so'ngra qabila va urug'-jamoada, so'ngra qo'ni-qo'shni jamoada o'zaro ijtimoiy hamda huquqiy muno sabatlar shakllana boshlagan. Oila-jamoa muno sabatlarining o'zaro aloqasi tufayli kishilar o'rta sida o'zaro mushtarak ijtimoiy, madaniy aloqalar shakllangan. Kishilar o'rtasidagi oilaga xos uyush qoqlik, qavm-u qarindoshchilik munosabatlari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida u yoki bu tarzda o'zgarib, rivojlanib kelgan va insoniyat jamiyati taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Oila hayotining turli masalalari, unda jismonan va aqlan sog'lom avlodni tarbiyalashga hamda ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga oid qarashlar sharq xalqlari tarixi hamda madaniyatining qadimgi merosi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham ma'lum ma'noda o'z ifodasini topgan. Unda o'sha davrning jismoniy, axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g'oyalarini aks ettiruvchi qarashlar, xususan, zardushtiylarda oila, turmush tarzi, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro

munosabatlarga oid fikrlar jamiyatdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarning takomillashishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Zero, zardushtiylarda jamiyatning birlamchi iqtisodiy asosi, ijtimoiy tarkibi oila (nmana), urug'-oila (vis), qo'ni-qo'shni oila (vaeshvadata), ma'lum hudud yoki davlat (daxyu) deb atalgan va ular ma'lum hudud doirasida amal qilganlar. Zardushtiylarda kishilar turmush tarzi, jumladan, xo'jalik-iqtisodiy munosabatlari, huquqiy munosabatlariga ko'ra bir qancha toifalarga bo'linganki, ularning jamiyatdagi huquqiy mavqeyi "Avesto"da maxsus qayd etilgan.

Xususan, bir qancha oilalar birlashmasi, "nmana", uning boshqaruvchisi, ya'ni katta oila jamoasi oqsoqoli "nmanapati", urug' jamoasi boshlig'i "vis", qishloq oqsoqoli "vispati", qabila boshlig'i "zantupati" deb atalgan. Katta oila jamoasi oqsoqoli "nmanapati" oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. "Vis" muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarni bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari, ya'ni "nmanapati"lar ichidan saylanib, urug' jamoasi boshlig'i qozi, diniy kohin, ya'ni rahnamo hisoblangan. "Avesto"ga ko'ra, o'sha davrda jamiyat tarkibi quyidagi 4 toifaga bo'lingan:

1. Kohinlar; 2. Jangchi va askarlar; 3. Chorvador va hunarmandlar. Ayniqsa, zardushtiylik ta'limotida rostlik va haqiqat uch ma'naviy-huquqiy g'oyaga asoslanganligi ya'ni, ezgu fikr, ezgu kalom (so'z), ezgu amal (ish) ga tayanganligi yanada e'tiborlidir.

"Avesto"ga ko'ra, jamiyatda kishilar jismoniy, ma'naviy va huquqiy mavqeyiga qarab quyidagi tamoyillarga amal qilganlar. Masalan, 15 yoshga to'lganlar balog'at yoshga yetgan hisoblangan va kattalar kabi teng jismoniy va huquqiy munosabatlarga ega bo'lganlar. An'anaga muvofiq, bu yoshdagi erkak o'smirlar zardushtiylik e'tiqodi ramzi sifatida beliga yung ipakdan to'qilgan kamar (kusta) taqib yurgan va otashparastlar ibodatxonasida o'tkaziladigan diniy marosimlarda qatnashish huquqiga ega bo'lgan. Bu shundan dalolat beradiki, zardushtiylik e'tiqodining ramzi va an'anaga muvofiq diniy marosimlarda faqat erkaklar ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlar. Jismoniy, axloqiy, ma'naviy va huquqiy tarbiya bola 7 yoshga to'lganda otashparastlar ibodatxonasida tashkil qilingan va u yerda quyidagi tarbiyaviy tadbirlar olib borilgan:

Birinchisi, diniy va axloqiy tarbiya; ikkinchisi, jismoniy sog'lomlashtiruvchi tarbiya; uchinchisi, ma'naviy-huquqiy tarbiya. Yoshlarga oilada jismoniy sog'lomlashtiruvchi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilib, o'g'il bolalarga kurash tushish, otda o'zini boshqarish, suvda suzish, mol boqish, tuya-otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, qolaversa, uy hayvonlarini yirtqich hayvonlardan himoya qilish va 50 dan ortiq harbiy qurol yarog' ishlata olish malakasini egallash o'rgatilgan. Shuningdek, balog'at yoshiga yetgan va undan oshgan yoshlarga chavandozlikdan tashqari yana 32 xil jismoniy va harbiy mashqlar o'rgatilgan.

Zardushtiylarda qiz bolalar jismoniy tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Qiz bolalarning ip yigirish, liboslar tikish, o'g'il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'q uzish kabi jismoniy-harbiy malakalarni egallashi majburiy bo'lgan. Shundan so'nggina qizlar 15, o'g'il bolalar 16 yoshida ota-ona va "nmanapati"lar boshchiligida zardushtiylar jamoasi oldida maxsus sinovdan o'tkazilgan.

Agar erkak va ayol kishi jinsiy yetilgan bo'la turib, zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsayu, ammo zurriyodni ko'paytirishga e'tiborsiz bo'lib, turmush qurmay yurgan bo'lsa, jamoa oldida sazoyi (sharmanda) qilingan. Zardushtiylik dinida erkak kishi jismoniy sog'lom bo'lishi uchun o'z vaqtida to'yib ovqat yeb yurishi olqishlangan, serfarzandlik qo'llab-quvvatlangan. Zardusht Axuramazdadan: "Serfarzand oilaga nima berasan?", deb so'raganda, u: "Bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilaman", – deb javob berganligi fikrimiz tasdig'idir.

Zardushtiylarda katta (patriarxal) oilaning oqsoqoli bir vaqtning o'zida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, ustoz va murabbiy bo'lgan. Oila boshlig'i, ya'ni oqsoqol butun katta oilaning boshlig'i hisoblangan. Eraklarning jamiyatda jismoniy va huquqiy ustunligi ramzi sifatida oila va urug'ni ota yoki oqsoqol boshqargan. Ularning qo'lida barcha hokimiyat jamlangan bo'lib, ular oila va jamoa faoliyatiga oid barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lganlar. Bunday shaxslarning topshiriq va buyruqlari oila a'zolari uchun majburiy hisoblangan. Ishlab

chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan va har bir uning a'zosi jismoniy mehnatga jalb qilingan.

O'zbekiston hududidagi qadimgi shaharlarda bir qancha patriarxal oila-jamoasi agnatlari, o'zaro qarindoshlik uzvlari bilan bog'langan urug' jamoalar uchun alohida qal'a va qo'rg'onlar bunyod etilganligi, mintaqa shaharlari uchun tipik xarakter kasb etgan. Jumladan, bunday oila-urug' jamoalar O'zbekiston aholisining ijtimoiy-hududiy joylashuv shakli sifatida tarixan patriarxal urug' jamoasi davriga borib taqaladi. Bu, aynan, zardushtiylik davriga xosdir.

Avestoda qayd qilinishicha, jamoada jismoniy, ma'naviy va huquqiy sog'lom avlod shakllanishi uchun qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qonun bilan qat'iy man qilingan. Ko'p bolali ayollarga tuyalar berilgan, farzandini nobud qilgan ayollar esa o'linga mahkum etilganlar. Shuningdek, oilasini, farzandlarini sarson qilgan oila boshlig'iga, zinoga berilgan erkak va ayolga nisbatan darra bilan kaltaklash yoki o'lim jazosi qo'llanilgan. Bir yo'la 2-3 ta farzand ko'rgan ayolga bir juft sog'in sigir, sariq tuya berilgan va davlat xazinasidan nafaqa to'langan.

Zardushtiyalarda oilada huquq va axloq, xususan, oila a'zolarining muomala odobi, xulqi, insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi oila va jamiyatda o'zini tutish qoidalari xususida atroflicha bayon etilgan. Unda bayon qilingan yaxshilik va yomonlik mezonlarini teran anglash har bir insonning halol mehnat asosida rizq topishiga, hunar va ilm olishiga, o'zgalarni hurmat qilishiga, oila va jamiyatni teran anglab yetishiga xizmat qilgan. Bu esa bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, jamiyat rivojida va oila huquq munosabatlarida muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маковельский А.О. Авеста. – Баку, 1960. – С. 89.
2. Hamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. (O'quv qo'llanma). –Toshkent, 2004.

3. Ashirov A. Farg‘ona vodiysi aholisi turmush tarzida qadimiy diniy e’tiqod izlari. Tarix fanlari. nomz... diss. avtoreferati –Toshkent, 2000. Ashirov A. “Avesto” va Zardushtiylarning oila-turmush marosimlari // O‘IF. – 2002. – № 1. – B. 49-53.
4. Usmonov Q., Sodiqov M. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. (Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr bosqichi talabalari uchun darslik). – Toshkent, 2005. – B. 30